



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 411 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qlijev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	
Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....	230
Samandarov Og'abek Alisher o'g'li	
Measuring methodologies of influence of the esg factors	235
Tolipova Feruza Alisherovna	
Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития.....	240
Омонов Отажон Журакулович	
Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish	249
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана.....	253
Каршиева Мохинур Олим кизи	
Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida)	257
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
Умные города как фактор экономического развития.....	261
Нозима Кахрамоновна Хакбердиева	
Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан.....	266
Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish	270
Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich	
Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash.....	275
Fozil Xolmurotov	
Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlarini.....	282
Quliyev Begimqul Melikovich	



O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi.....	289
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency.....	292
Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna	
Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish	298
Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich	
To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari	303
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi	
Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan).....	307
Azimov Shakhzod	
Organik mahsulotlar eksportini rag'batlantirishda maqsadli bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari.....	314
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
Korxona iqtisodini barqarorligini ta'minlash masalalari.....	319
Abdullayev Maqsud Abdumaxmudovich	
Внедрение инновационных методов управления человеческих ресурсов в строительных компаниях.....	323
Джураева Гузаль Шавкатовна	
Sug'urta zararlarini baholashda sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	328
Shoraximova Zilola Nasirdjonovna	
O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimini moliyalashtirish masalalari	332
Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li	
Raqamli texnologiyalar asosida raqamli ekotizimlar va ularning biznes-jarayonlarga ta'sirini aniqlashga ilmiy qarashlar tahlili	336
Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi	
Innovatsion salohiyatni oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	342
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna	
Aholi turmush darajasini dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar usuli orqali baholash	352
Xolto'rayev Islom Ilhomovich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyotini qisqartirish va mamlakat rivojlanishiga uning ta'siri.....	358
Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich	
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini aholi tomonidan xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlarini raqamlashtirish hamda tizimlar integratsiyasi istiqbollari.....	362
Ochilov Abdujabbor Akramovich	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishda chet el tajribasining afzalliklari.....	369
Raxmatullayeva Shaxnoza Xamidovna, Akbarova Iroda Samatovna	
Qurilishda loyiha boshqaruvi konsepsiyasining mazmuni	375
Pulatov Shaxron Axmedovich	
Loyiha budjeti va uning ijrosini ta'minlash masalalari.....	379
Murodova Mohigul Chori qizi, Xamidov Odil Davurovich	
O'zbekiston sug'urta amaliyotida umr davomiyligi funksiyalarini aniqlashda aktuar hisoblarning o'рни.....	385
Abdujalilova Guzal Saydillayevna	
Qishloq xo'jaligidagi chorvachilik tarmog'ining iqtisodiy faoliyatini o'rta muddatli statistik prognozlarini tuzish (Andijon viloyati misolida).....	390
Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich, Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va rivojlantirish yo'llari.....	397
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Holmirzayeva Gulruh Akbarovna	
Fond bozorida kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti.....	403
Yulduz Usmanova	



FOND BOZORIDA KOMPANIYANING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI BAHOLASH USLUBIYOTI



Yulduz Usmanova

Mustaqil izlanuvchi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyadorlik jamiyatining investitsion jozibadorligi investorlar uchun yuqori xavfsizlik va barqaror daromadlilikni ta'minlay oladigan kompaniyani aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash bo'yicha mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi. Taklif etilgan uslubiyot mavjud nazariy va amaliy yondashuvlardan farqlanib, texnik, fundamental va miqdoriy tahlil elementlarini o'zida birlashtirgan integral metodikaga asoslanadi. Tadqiqotda investitsion jozibadorlik indeksini aniqlash usuli ishlab chiqilib, uning chegaraviy qiymatlari belgilandi. Mazkur indeks moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarga tayanadi, bu esa kompaniyaning bozordagi mavqei, o'sish salohiyati va barqarorlik darajasini kompleks baholash imkonini beradi. Natijalar ushbu yondashuv kompaniyalarga fond bozorida investorlarni jalb qilishda amaliy qo'llanma vazifasini bajarishi mumkinligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: texnik tahlil, fundamental tahlil, miqdoriy tahlil, investitsion jozibadorlik indeksi, nomoliyaviy parametrlar, integral yondashuv.

Abstract: In the securities market, the investment attractiveness of a joint-stock company reflects its ability to deliver favorable returns relative to associated risks, such as financial stability, market position, and growth potential. This study develops an original methodology for assessing corporate investment attractiveness that differs from existing approaches in the literature. The proposed method integrates elements of technical, fundamental, and quantitative analysis to form a comprehensive evaluation framework. A specific investment attractiveness index is introduced, along with defined threshold values, based on both financial and non-financial indicators. This enables a holistic assessment of a company's stability, growth prospects, and market competitiveness. The findings indicate that the developed methodology can serve as a practical tool for companies seeking to attract investors in the capital market.

Key words: technical analysis, fundamental analysis, quantitative analysis, investment attractiveness index, non-financial indicators, integrated approach.

Аннотация: На рынке ценных бумаг инвестиционная привлекательность акционерного общества отражает его способность обеспечивать доходность при допустимом уровне риска, что зависит от таких факторов, как финансовая устойчивость, рыночная позиция и потенциал роста. В данной статье представлена авторская методика оценки инвестиционной привлекательности компании, отличающаяся от существующих подходов. Предложенный метод основан на интеграции элементов технического, фундаментального и количественного анализа. Введён индекс инвестиционной привлекательности, а также предложены предельные значения, учитывающие как финансовые, так и нефинансовые параметры. Такой подход позволяет комплексно оценить положение компании на рынке, её устойчивость и перспективы роста. Результаты исследования показывают, что предложенная методика может служить практическим инструментом для привлечения инвесторов на фондовом рынке.

Ключевые слова: технический анализ, фундаментальный анализ, количественный анализ, индекс инвестиционной привлекательности, нефинансовые параметры, интегрированный подход.



KIRISH

Fond bozorida kompaniyalarning investitsion jozibadorligini baholash zamonaviy moliyaviy tahlilning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, global iqtisodiy beqarorlik, geosiyosiy xavf va bozorlar volatilligini inobatga olgan holda investorlarning asosli qarorlar qabul qilishi uchun ishonchli va tizimli baholash vositalariga ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Bugungi tezkor raqamli transformatsiya, ommaviy kompaniyalar sonining ortishi, ma'lumotlarning oshkoraligi va texnologik yutuqlar investitsion tahlil metodlariga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

Investitsion jozibadorlik kompaniyaning mavjud va kutilayotgan risklar sharoitida qanday daromad potentsialiga ega ekanligini aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, fond bozorlarida yuqori noaniqlik va o'zgaruvchanlik holatlari hukm surayotgan bir paytda, mazkur baholash investitsiya salohiyatiga ega kompaniyalarni tanlashda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Hozirda kompaniyalarni baholashda fundamental tahlildan tortib murakkab matematik modellargacha bo'lgan turli yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, ularning aksariyati konkret tarmoqlar yoki bozorlarga moslashgan bo'lib, universal metodologiya yetishmaydi. Bu esa, investorlar va tahlilchilar oldida investitsion jozibadorlikni izchil, taqqoslama va har tomonlama asoslangan holda baholashda jiddiy cheklovlar tug'diradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini o'zaro integratsiyalashgan holda birlashtiruvchi, zamonaviy iqtisodiy sharoit va bozor muhitining xususiyatlarini hisobga olgan, kompaniyalarning investitsion jozibadorligini kompleks baholovchi metodologiyani ishlab chiqishdan iborat. Taklif etilayotgan yondashuv fond bozorida faoliyat yurituvchi kompaniyalarni tizimli baholash hamda investitsiya qarorlarini qabul qilishda, nafaqat individual, balki institutsional investorlar uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlarda investitsion jozibadorlik tushunchasi haqida ko'plab ilmiy-nazariy qarashlar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Investitsiyaviy jozibadorlikka oid nazariy qarashlar [1-8].

Mualliflar	Investitsiyaviy jozibadorlikka berilgan ta'rif
Harry Markowitz (1952)	Investitsiyaviy jozibadorlik - bu diversifikatsiyalangan portfelda kutilgan daromad va xavf o'rtasidagi muvozanat.
William Sharpe (1964)	Investitsiyaviy jozibadorlikni investitsiyaviy aktivning beta-versiyasiga va kutilayotgan bozor mukofotiga e'tibor qaratgan holda, riskga qarab moslashtirilgan daromad sifatida ta'kidlangan.
Michael Jensen (1976)	Samarali korporativ boshqaruv va xarajatlarini minimallashtirish natijasida investitsiyaviy jozibadorlikni tadqiq qilgan.
Peter Drucker (1985)	Investitsiyaviy jozibadorlikni korxonaning innovatsion salohiyati va bozorga moslashuvi bilan bog'liqligini ta'kidlagan.
John Dunning (1993)	Investitsiyaviy jozibadorlikni to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar uchun OLI (egallik, joylashish, ichkilashtirish) paradigmasi orqali aniqlangan.
Aswath Damodaran (2002)	Moliyaviy samaradorlik va shaffoflik asosida uzoq muddatli qiymat yaratish salohiyati sifatida investitsiya jozibadorligini ta'kidlagan.
Richard Baldwin (2006)	Investitsiyaviy jozibadorlikni mamlakatning global ta'minot zanjirlariga integratsiyalashuvi, savdo va investitsiyalar uchun ochiqqligi bilan bog'liqligini ta'kidlagan.
Joseph Stiglitz (2013)	Barqaror rivojlanishni ta'kidlab, uzoq muddatli investitsiyaviy jozibadorlik ijtimoiy, ekologik va boshqaruv omillariga bog'liqligini ta'kidlagan.

Fond bozorida kompaniyalarning investitsion jozibadorligini baholash sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar keng qamrovli yondashuvlarga asoslanadi. Bu boradagi klassik nazariy asoslar Benjamin Grem va Devid Doddning asarlarida ifodasini topgan bo'lib [9], ular qimmatli investitsiyalar konsepsiyasiga asos solgan. "Aqlli investor" (The Intelligent Investor) asarida mualliflar fundamental tahlil, kompaniyaning ichki qiymati va aksiyalarning uzoq muddatli daromadlilikligi masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.



Ushbu konsepsiyalarni zamonaviy sharoitda Asvat Damodaran yanada rivojlantirib, investitsion jozibadorlikni baholashda diskontlangan pul oqimlari (DCF) va bozor ko'paytmalari (P/E, P/B va boshqalar) tahlilining ahamiyatini ta'kidlagan [10].

Mazkur sohada rus tadqiqotchilarining hissasi ham e'tiborga molik. Jumladan, A.B. Zeltser o'z ilmiy ishlarida G'arbda qo'llaniladigan uslublarni past likvidlik, ma'lumotlar shaffofligining yetishmasligi va yuqori risklar kabi omillarni hisobga olgan holda Rossiya fond bozorining xususiyatlariga moslashtirgan [11]. Shuningdek, E.I. Krilov va V.M. Vlasova asarlarida investitsion jozibadorlikni baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar (rentabellik, likvidlik) bilan bir qatorda sifat omillari (korporativ boshqaruv sifati, kompaniya obro'-e'tibori)ni ham inobatga oluvchi kompleks yondashuv zarurligi qayd etilgan [12].

Shunga qaramay, mavjud adabiyotlarda bir qator kamchiliklar mavjud. Jumladan, turli xil tarmoq va miqyosdagi kompaniyalar uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan universal metodologiyaning mavjud emasligi, shuningdek, makroiqtisodiy omillar ta'sirining yetarli darajada hisobga olinmasligi muammo bo'lib qolmoqda. Ilmiy adabiyotlardagi ushbu bo'shliq ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan metodologiyani shakllantirish va rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLGIYASI

Ushbu tadqiqot ishining metodologik asosi aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini baholashga oid qiyosiy va tahliliy yondashuvlarga tayangan. Tadqiqotda ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish va ularning boshqa fond bozorlarida qo'llanish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.


Metodologiya kompaniyaning investitsion jozibadorligini aniqlashda turli moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini aniqlashga qaratilgan. Fond bozori vositalarining aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligini oshirishdagi rolini chuqur anglash uchun tizimli va dalillarga asoslangan yondashuv asos qilib olindi. Bu yondashuv kompaniyalarning bozordagi mavqeini, moliyaviy barqarorligini, o'sish salohiyatini va investorlar ishonchini kompleks baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kompaniyalarning fond bozoridagi investitsion jozibadorligini faqat ularning bozor faolligi, taklif etayotgan moliyaviy instrumentlarining xilma-xilligi yoki yillar davomida investorlar uchun to'lab kelayotgan dividendlari kabi ko'rsatkichlar asosida baholash biryoqlama va cheklangan yondashuv hisoblanadi.

Aslida, kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash jarayoni strategik rejalashtirishdan tortib, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat, ichki boshqaruv madaniyati, xodimlar motivatsiyasi va rahbariyatning boshqaruv salohiyatigacha bo'lgan ko'plab omillarni o'z ichiga olishi lozim. Kompaniyaning eng oddiy xodimidan to yuqori rahbarlarigacha bo'lgan faoliyat, korporativ boshqaruv sifati, bozor bilan kommunikatsiya darajasi, makroiqtisodiy barqarorlik hamda huquqiy muhit singari yuzlab ichki va tashqi omillar ushbu jarayonga ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, tadqiqot doirasida kompaniyalarning investitsion jozibadorligiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni tizimli tarzda tahlil qilish maqsadida ularni ikkita asosiy guruhga ajratib o'rganish zarur deb topildi (1-rasm).



1-rasm. Investitsiyaviy jozibadorlikning shakllanish tizimi.




Investitsiyaviy jozibadorlikning shakllanishida tashqi omillar aksariyat investorlar uchun yaxshi ma'lum. Misol uchun, hech qaysi investor urushlar bo'layotgan, yopiq siyosat yuritayotgan, yoki salbiy natijalarga olib keluvchi sanoatga mablag' kiritmaydi. Shunday ekan, kompaniyaning ichki jarayonlarini aks ettiruvchi omillarni bloklarga ajratib, ularni alohida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish asosida, investitsiyaviy jozibadorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillarni birlashtiruvchi turli tashqi omillar va guruhlar mualliflar tomonidan keltirilganligini ta'kidlash mumkin. Shu bilan birga, tashqi omillar doimiy ravishda yangilanib boradi, shuning uchun ko'plab tadqiqotchilar yangi omillarni aniqlab, ularni ilmiy tadqiqotlar shaklida taqdim etishadi. Shu sababli, biz 2.15-rasmda keltirilgan tashqi omillarni investitsiyaviy jozibadorlikni baholashda optimal tanlangan omillar sifatida keltirishni lozim topdik.

Korxonaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun, uning rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini aniq tushunish zarur. Faoliyatning qaysi jihatlariga ustuvor e'tibor qaratish kerakligini aniqlash va maksimal samaraga erishish uchun resurslarni kamroq muvaffaqiyatli sohalardan ko'proq samaradorlikka ega bo'lgan yo'nalishlarga qayta taqsimlash muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda kompaniyaning investitsiyaviy jozibadorligini aniqlash va baholashga oid ko'plab yondashuvlar mavjud. Ular ishlatiladigan metodlar, tahlil parametrlari va qo'llaniladigan omillar bo'yicha bir-biridan farq qiladi (2-rasm).



2-rasm. Investitsiyaviy jozibadorlikni baholashning xorijiy va mahalliy yondashuvlari.

Shuningdek, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, investorlar tomonidan qaysidir kompaniyaning aksiyalariga investitsiya kiritish jarayonida, kompaniyaning moliyaviy qiymati va daromadlilik darajasi, bozor kapitallashuvi, investitsiyalarning qachon va qanday qaytishi, shuningdek resurslardan foydalanish samaradorligi kabi moliyaviy ko'rsatkichlar chuqur tahlil qilinadi. Adabiyotlarda aynan ana shunday ko'rsatkichlarga asoslangan holda investitsiyaviy jozibadorlikni baholashga qaratilgan yondashuv mavjud bo'lib, u integral yondashuv deb ataladi [13].

Integral yondashuvning asosiy afzalligi – baholash jarayonida olingan natijalarning yuqori ishonchliligi (ya'ni ob'ektivligi) va barcha hisob-kitoblarning yakuniy yagona integral ko'rsatkichga keltirilishidadir. Shu bilan birga, uning kamchiligi – asosan ichki omillarni tahlil qilish bilan chegaralanishi va moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanishidir.

Amaliyotda investitsion jozibadorlikni baholash, birinchi navbatda, moliyaviy va ishlab chiqarish omillariga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, integral yondashuv ushbu yo'nalishda eng aniq va samarali metodlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuv qo'llanilgan hollarda tahliliy ko'rsatkichlar turli jihatlarini aks ettiruvchi beshta asosiy bloklarga guruhlanadi (3-rasm).



Faoliyatning ichki ko'rsatkichlaridan foydalanish

asosiy va material aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichi	moliyaviy holati ko'rsatkichi	mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichi	investitsiyaviy faoliyati ko'rsatkichlari	xo'jalik faoliyatini yuritish ko'rsatkichlari
---	-------------------------------	---	---	---

3-rasm. Ichki ko'rsatkichlar asosida investitsiyaviy jozibadorlikni baholashning integral usuli [14].

Investitsiyaviy jozibadorlikni baholash yondashuvlaridan yana biri – ekspert usuli, shuningdek Delfi usuli hisoblanadi. Ushbu yondashuvda kompaniya rahbariyati tomonidan tanlab olingan ekspertlar korxonaning bozordagi mavqei, rivojlanish istiqbollari va faoliyat samaradorligi bo'yicha o'z ekspert baholarini taqdim etadilar.

Mazkur usulning asosiy afzalligi – kompaniyaning strategik rivojlanishiga doir masalalarda turli ekspertlarning fikr-mulohazalari va tahliliy yondashuvlarining xilma-xilligidir. Bu esa tahlilni kengroq va ko'p qirrali nuqtai nazardan olib borish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, ekspert yondashuvining muayyan kamchiliklari ham mavjud. Xususan, baholash natijalarining yuqori darajadagi subyektivligi, ya'ni baholovchilarning shaxsiy qarashlariga bog'liqligi, umumiy natijalarning ishonchililigini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, Delfi usuli qo'llanilganda, ekspert fikrlarini boshqa miqdoriy yoki integral baholash usullari bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ko'plab xorijiy mamlakatlarda kompaniyalarning investitsiyaviy jozibadorligini aniqlash indeksi mavjud bo'lib, uning qiymati investorlarga kompaniyaning qanchalik investitsiyaviy jozibador ekanligini tushunishga yordam beradi. Xususan, xorijiy adabiyotlarda investitsiyaviy jozibadorlik indeksi likvidlik, moliyaviy barqarorlik, tadbirkorlik faolligi va rentabellik kabi ko'rsatkichlardan shakllantirilishi keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Investitsiyaviy jozibadorlik indeksining moliyaviy va nomoliyaviy parametrlari.

Ko'rsatkichlar	Izohi	Sabablar (milliy kontekstda)
1. Moliyaviy ko'rsatkichlar		
Umumiy qoplash koeffitsiyenti	Qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan aktivlar nisbati.	Ko'plab korxonalar to'lov qobiliyatining pastligi bilan bog'liq muammolarga duch keladi.
O'z aylanma mablag'ining ulushi	O'z kapitali hisobidan moliyalashtirilgan aylanma mablag'larning ulushi.	Kompaniyaning qarzga qaramlikni kamaytirish strategiyasi bilan bog'liq.
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	Kapitalning qarzga qaramligini ko'rsatuvchi nisbat.	Ko'plab korxonalar qarzga qaramlik bilan bog'liq muammolarga duch keladi.
Kapitalning to'liqligi koeffitsiyenti	Aktivlarning kapital bilan qoplanish darajasi.	Aktivlarning kapital bilan to'liq qoplanishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.
Aktivlar rentabelligi (ROA)	Aktivlardan foydalanish samaradorligini ko'rsatuvchi ko'rsatkich.	Sanoat korxonalarining samaradorligini baholashda muhimdir, chunki mamlakatda ishlab chiqarishning rivojlanishi davom etmoqda.
Kapital rentabelligi (ROE)	Kapitaldan foydalanish samaradorligini ko'rsatuvchi ko'rsatkich.	Mamlakatda investitsion resurslar cheklangan sharoitda xususiy kapitaldan qanchalik samarali foydalanilayotganini ko'rsatadi.
2. Nomoliyaviy ko'rsatkichlar		
ESG reytingi (Atrof-muhit, Ijtimoiy, Boshqaruv)	Kompaniyaning atrof-muhitga, jamiyatga va boshqaruvga ta'sirini baholovchi reyting.	Yashil iqtisodiyot strategiyasi bilan bog'liq holda ESG tamoyillariga e'tibor kuchaymoqda.
Korporativ boshqaruv sifatining bahosi	Kompaniya rahbariyatining tajribasi va strategik qobiliyatini baholash.	Korporativ boshqaruv investorlar qaror qabul qilishida muhim ahamiyatga ega.



Innovatsiya indeksi	Texnologiyalarni qo'llash va R&D sarmoyalarining ulushini ko'rsatuvchi ko'rsatkich.	Texnologik modernizatsiya dasturlari investorlar uchun ijobiy signal sifatida xizmat qiladi.
Manfaatdor tomonlarning qoniqishi	Mijozlar, xodimlar va hamkorlar qoniqish darajasini ko'rsatuvchi ko'rsatkich.	Sanoat korxonalarining uzoq muddatli rivojlanishi uchun manfaatdor tomonlarning qoniqish darajasini investorlarda ishonchni oshiradi.

Xalqaro standartlarga ko'ra, yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarning chegaraviy qiymatlari quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiqligi belgilangan (3-jadval):

3-jadval. Investitsiyaviy jozibadorlik indeksi parametrlari va chegaraviy qiymatlari.

Ko'rsatkichlar	Juda qoniqarsiz (1)	Qoniqarsiz (2)	Qabul qilinadigan (3)	Qoniqarli (4)	Yaxshi (5)	Chegaraviy qiymati
Umumiy qoplash koeffitsienti	< 1.0	1.0–1.2	1.2–1.5	1.5–2.0	> 2.0	1.5
O'z aylanma mablag'ining ulushi	< 10%	10–20%	20–30%	30–40%	> 40%	25%
Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	< 0.3	0.3–0.4	0.4–0.6	0.6–0.8	> 0.8	0.5
Kapitalning to'liqligi koeffitsienti	< 0.7	0.7–0.8	0.8–0.9	0.9–1.0	> 1.0	0.85
Aktivlar rentabelligi (ROA)	< 5%	5–10%	10–15%	15–20%	> 20%	12%
Kapital rentabelligi (ROE)	< 8%	8–12%	12–18%	18–25%	> 25%	15%
ESG reytingi (Atrof-muhit, Ijtimoiy, Boshqaruv)	< 2.0	2.0–2.5	2.5–3.5	3.5–4.0	> 4.0	3.0
Boshqaruv sifatining bahosi	< 2.5	2.5–3.0	3.0–3.5	3.5–4.0	> 4.0	3.5
Innovatsiya indeksi	< 10%	10–20%	20–30%	30–40%	> 40%	25%
Manfaatdor tomonlarning qoniqishi	< 50%	50–65%	65–75%	75–85%	> 85%	70%

Yuqoridagi jadvallarga asoslanib, milliy kompaniyalarimizning investitsiyaviy jozibadorlik indeksini aniqlashning imkoni deyarli mavjud emas. Shu bois, mazkur tadqiqot ishida biz faqatgina ma'lumotlari oshkor etiladigan moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar asosida milliy kompaniyalarning investitsiyaviy jozibadorlik indeksini baholashga harakat qildik.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi sifatida taklif etilayotgan metodika asosida investitsiyaviy jozibadorlik indeksini quyidagi tartibda baholash tavsiya etiladi.

Indeks ikki guruh ko'rsatkichlardan (moliyaviy va nomoliyaviy) shakllantiriladi. Har bir ko'rsatkich 10 balli shkala bo'yicha baholanadi, shundan so'ng yakuniy natijalar integral usul yordamida yagona indeksga keltirish orqali hisoblanadi (4-jadval).



4-jadval. Investitsiyaviy jozibadorlik indeksini baholash uslubiyoti.

Guruh	Hisoblash formulalari	Normallashtirish uslubiyoti	Maksimum baho
Moliyaviy			50%
1. Aktivlar rentabelligi (ROA)	$ROA = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{O'rtacha aktivlar}} \times 100\%$	$Baho = \frac{ROA - ROA_{min}}{ROA_{max} - ROA_{min}} \times 10$	10
2. Xususiy kapital rentabelligi (ROE)	$ROE = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Xususiy kapital}} \times 100\%$	$Baho = \frac{ROE - ROE_{min}}{ROE_{max} - ROE_{min}} \times 10$	10
3. Savdolar rentabelligi (ROS)	$ROS = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Sof tushum}} \times 100\%$	$Baho = \frac{ROS - ROS_{min}}{ROS_{max} - ROS_{min}} \times 10$	10
4. Moliyaviy mustaqillik	$Coef_{FF} = \frac{\text{Xususiy kapital}}{\text{Aktivlar}}$	$Baho = Coef_{FF} \times 10$ ($1 > Coef_{FF} > 0.5$ bo'lganda)	10
5. Bozor kapitallashuvi	$MC = Q_S \times P_S$ Q_S – aksiyalar soni P_S – aksiyaning bozor bahosi	$Baho = \frac{\ln(MC) - \ln(MC_{min})}{\ln(MC_{max}) - \ln(MC_{min})}$	10
Nomoliyaviy			50%
1. Korporativ boshqaruv	Ijro organi tuzilmasini baholash, hisobot berishning shaffofligi, Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga amal qilishning natijalari (ekspert bahosi)	Shkala: 1-10 gacha (zo'r – 10, qoniqarli – 7, qoniqarsiz – 4, mavjud emas – 0)	10
2. Dividend siyosati	To'lovlarning barqarorligi, dividendlar bo'yicha daromadlilik ulushi	$ROS = \frac{\text{To'lovlar ulushi}}{10\%} \times 2$	10
3. Listing kategoriyasi	Birja listingining qaysi kategoriyasiga mansubligi	Premium – 10, standart – 7, transit – 5, birja listingidan tashqari – 2	10
4. Kompaniya brendi	Mashhurlik, iste'molchilar orasida tan olinishi, mijozlarning sodiqligi	$Baho = \text{Bozor ulushi} \times 10$	10
5. ESG siyosati	Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv standartlariga muvofiqligi (GRI hisobotlariga ko'ra)	10 ta mezon bo'yicha baholash (har bir to'ldirilgan band uchun 1 ball)	10

4-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar investorlarga muhim qaror – sarmoya kiritish mumkinmi yoki mumkin emasmi degan qarorni qabul qilishda yordam beradi.

Baholash natijalarini integral ko'rinishga keltirish quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$I_{integr} = \left(\frac{\sum \text{Moliyaviy ko'rsatkichlar}}{5} \times 0.5 \right) + \left(\frac{\sum \text{Nomoliyaviy ko'rsatkichlar}}{5} \times 0.5 \right)$$

Olingan natijalar quyidagicha izohlanadi (4-rasm):



4-rasm. Natijalarning izohlanashi.

Yuqorida keltirilgan formula, 4-jadvalda keltirilgan baholash uslubiyotini qo'llagan holda kompaniyalarning investitsiyaviy jozibadorlik indeksini baholash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ishlab chiqilgan uslubiyot kompaniyalarning investitsion jozibadorligini fond bozorida har tomonlama baholash imkonini beradi. Bu baholash jarayonida nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki bozor istiqbollari ham kompleks tarzda inobatga olinadi. Miqdoriy va sifat omillarining integratsiyasi faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslangan an'anaviy yondashuvlarga qaraganda yanada to'liqroq va aniqlashtirilgan tasavvur beradi.



Metodologiyaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: ko'p qirrali yondashuvga asoslanganligi, zarur ma'lumotlarning ochiqqligi va mavjudligi, shuningdek, baholovchi investorning maqsadlariga mos keluvchi indikatorlarni tanlash imkoniyati.

Kelajakda ushbu metodologiyani yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud. Xususan, zamonaviy fond bozori sharoitida tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotgan SDG (Barqaror Rivojlanish Maqsadlari – Sustainable Development Goals) omillarini baholash tizimiga qo'shish orqali yondashuvni kengaytirish mumkin. Bu esa, kompaniyalarning investitsion jozibadorligini nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik mezonlar asosida ham baholash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Markowitz, H. (1952). Portfolio selection. The Journal of Finance, 7(1), 77–91. <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1952.tb01525.x>
2. Sharpe, W. F. (1964). Capital asset prices: A theory of market equilibrium under conditions of risk. The Journal of Finance, 19(3), 425–442. <https://doi.org/10.2307/2329291>
3. Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. Journal of Financial Economics, 3(4), 305–360. <https://doi.org/10.2139/ssrn.94043>
4. Drucker, P. F. (1985). Innovation and entrepreneurship: Practice and principles. Harper & Row. <https://doi.org/10.1108/eb046283>
5. Dunning, J. H. (1993). Multinational enterprises and the global economy. Addison-Wesley. <https://doi.org/10.1057/9780230514813>
6. Damodaran, A. (2002). Investment valuation: Tools and techniques for determining the value of any asset. John Wiley & Sons. <https://www.damodaran.com/>
7. Baldwin, R. (2006). Globalisation: The great unbundling(s). Economic Council of Finland Publication. Retrieved from <https://voxeu.org/article/globalization-and-growth>
8. Stiglitz, J. E. (2013). The price of inequality: How today's divided society endangers our future. W.W. Norton & Company. <https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199288144.001.0001>
9. Graham, B., & Dodd, D. (1949). The Intelligent Investor: The Definitive Book on Value Investing. Harper & Brothers.
10. Damodaran, A. (2012). Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset (3rd ed.). Wiley.
11. Иванов, А. А. (2021). Интегральные методы оценки инвестиционной привлекательности компаний: обзор подходов. Экономика и управление, 5(27), 45–53.
12. Крылов, Э. И., & Власова, В. М. (2020). Комплексный подход к анализу инвестиционной привлекательности предприятий. Финансы и кредит, 26(8), 1890–1902.
13. Зельцер, А. Б. (2018). Методика оценки инвестиционной привлекательности российских компаний на фондовом рынке [Диссертация кандидата экономических наук]. Московский государственный университет.
14. Мельничук, О. М. Инвестиционная привлекательность металлургической компании: методика оценки [Текст] // Мельничук О. М. – Российское предпринимательство. – 2020. – №1. – С.128–135.; Савенкова, Е. В. Экономические методы приоритетного развития инвестиционного предпринимательства [Текст] / Е. В. Савенкова. – М., 2018. – 113 с.
15. Крылов, Э. И. Анализ финансового состояния и инвестиционной привлекательности предприятия [Текст]: учеб. пособие / Э. И. Крылов, В. М. Власова, М. Г. Егорова и др. – М.: Финансы и статистика, 2013. – 218 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
